



“HTMLDA WEB SAHIFALAR YARATISH” MAVZUSINI O‘QITISH METODIKASI.

Mamatova Zilolaxon Xabibulloxonovna

*Farg‘ona davlat universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

E-mail: mamatova.zilolakhon@gmail.com

Jo‘rayev Ahliddin Ravshanjon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

E-mail: tadaxshat@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada HTML texnologiyasi asosida web sahifalar yaratishni o‘rgatish metodikasi yoritiladi. Mavzuni o‘qitishda zamonaviy pedagogik yondashuv — *Project Based Learning* (loyiha asosida o‘qitish) usulidan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini ko‘rib chiqiladi. O‘quv jarayonini loyihaviy shaklda tashkil etish orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, web sahifa tuzish ko‘nikmalari, jamoada ishlash madaniyati va real hayotga mos IT kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. HTML darslarini bosqichma-bosqich loyihalash, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish, baholash mezonlari va o‘qituvchi roli keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: HTML, web sahifa, loyihaviy metod, ta’lim texnologiyalari, interfaol usul.

Аннотация: В данной статье рассматривается методика преподавания темы «Создание веб-страниц на HTML» с использованием проектного метода обучения. Анализируются теоретические основы и практическая реализация *Project Based Learning* при обучении HTML. Показано, как проектный подход способствует развитию у учащихся навыков самостоятельного мышления, командной работы, web-разработки и формирования цифровых компетенций.

Ключевые слова: HTML, веб-страница, проектный метод, обучение, цифровые компетенции.

Annotation: This article explores the methodology of teaching the topic “Creating Web Pages using HTML” based on the *Project-Based Learning* approach. It highlights the theoretical foundations and practical implementation of PBL in teaching HTML. The study emphasizes how project work enhances students’ skills in independent thinking, teamwork, and real-life web development, forming essential digital competencies.

Keywords: HTML, web development, project-based learning, teaching methodology, digital skills.





Kirish.Bugungi kunda axborot texnologiyalari jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Internet, web-saytlar, elektron ta'lim platformalari, mobil ilovalar — bularning barchasi HTML, CSS, JavaScript kabi dasturlash tillariga asoslanadi. Shuning uchun maktab, kollej yoki oliy ta'lim tizimida “HTMLda web sahifalar yaratish” mavzusini chuqur va zamonaviy uslubda o'rgatish dolzarb masalalardan biridir. An'anaviy ta'lim tizimida HTML darslari ko'pincha nazariya va sodda amaliy mashg'ulotlar bilan cheklanib qoladi. Bunda o'quvchi kod yozishni o'rganadi, biroq uni real web-sahifa yaratishda qo'llashda qiyinchiliklarga duch keladi. Shu sababdan bugungi ta'lim jarayonida samarali natija beruvchi, o'quvchini faol ijodkorlikka undaydigan metodlardan foydalanish zarur. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada Project Based Learning (loyiha asosida o'qitish) metodidan foydalanib HTMLni o'qitish tajribasi va metodikasi yoritiladi. Bu usulda o'quvchilar faqat bilim oluvchi emas, balki haqiqiy web-sayt yaratadigan ijodkor va loyiha mualliflariga aylanadi. HTML (HyperText Markup Language) — web sahifalarning asosiy skeleti bo'lib, brauzerda ko'rinadigan har qanday sayt mazkur til yordamida tuziladi. HTML o'rganish — IT sohasiga kirish eshigi hisoblanadi. HTML o'qitishning dolzarb jihatlari quyidagilardan iborat ya'ni o'quvchilarning raqamli savodxonligini oshiradi, web dasturlashga kirish bosqichi bo'lib xizmat qiladi, mustaqil izlanish texnologiya bilan ishlash madaniyatini shakllantiradi, kelajak kasblari — web dasturchi, UI/UX dizayner, frontend mutaxassis uchun asos bo'ladi. O'quvchilarni o'qitishdan maqsad o'quvchiga HTML teglar, struktura, matn, rasm, jadval, havola joylashni o'rgatish, amaliy web sahifa yaratish ko'nikmasini shakllantirish, real loyiha asosida jamoada ishlashni o'rgatish dan iborat hisoblanadi.

Asosiy qism: HTML texnologiyasining pedagogik ahamiyati. HTML (HyperText Markup Language) – bu web-sahifalar tuzilmasini yaratish uchun asosiy til bo'lib, u brauzerlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri tushuniladi va foydalanuvchiga tayyor ko'rinishda taqdim etiladi. HTMLni o'qitishning pedagogik jihatdan o'ziga xosligi shundaki, bu til nazariya va amaliyotni uzviy bog'laydi. O'quvchi mavzuni nafaqat tushunadi, balki natijani darhol brauzerda ko'rib, o'z xatolarini tahlil qilish imkoniga ega bo'ladi. HTML darslari o'quvchida mantiqiy fikrlash, muammo yechish, mustaqil tahlil, dizayn va strukturaga bo'lgan estetik qarashlarni shakllantiradi. Web-sahifaning skeleti odatda quyidagi tuzilma orqali tashkil etiladi:





```
1  <!DOCTYPE html>
2  <html>
3  <head>
4      <title>Sahifa nomi</title>
5  </head>
6  <body>
7      Mazmun bu yerda joylashadi.
8  </body>
9  </html>
10
```

Bu tuzilma orqali o'quvchilar sahifaning mantiqiy qismlarini ajrata oladi: <head> – texnik ma'lumotlar, <body> esa – foydalanuvchiga ko'rinadigan asosiy mazmun.

Teg

<h1> - <h6>

<p>

<a>

, ,

<table>

<div>,

Vazifasi

Sarlavha darajalari

Paragraf (matn)

Giperhavola yaratish

Rasm joylash

Ro'yxatlar

Jadval yaratish

Strukturaviy bloklar



HTMLni o‘qitishda “Loyiha asosida o‘qitish metodi”

Nazariy qism

•HTML asoslari

AMALIY
JARAYON

•Loyiha ishlash

Taqdimot va
baholash

•Baholash

HTMLni o‘qitishda eng samarali yondashuvlardan biri bu – loyiha asosida o‘qitish metodidir. Chunki HTMLni faqat nazariy tarzda tushuntirish yetarli emas, talaba haqiqiy web-sahifa yaratishda ishtirok etmasa, o‘rgangan bilimlarini chuqur anglamaydi. Loyiha asosida ta’lim jarayonida o‘quvchilar kichik guruhlariga bo‘linadi va har bir guruhga aniq vazifa beriladi. Masalan, “shaxsiy portfolio sahifasi”, “maktab yoki kollejning bosh sahifasi” yoki “mahsulot reklama sahifasi” kabi mini-loyihalar topshiriladi. O‘qituvchi dastlab HTML haqidagi nazariy bilimlarni, teglarning ishlatilishi, sahifa tuzilishi, matn, rasm va havolalar bilan ishlashni tushuntiradi, lekin asosiy ijodiy ishni talabalar o‘zlari bajaradilar. Ular kod yozadilar, dizayn yaratadilar, matn va rasm joylashtiradilar, xatolarni tuzatadilar. Bu jarayonda o‘qituvchi kuzatuvchi va yo‘naltiruvchi rolini bajaradi, lekin tayyor yechimlarni bermaydi. Dars yakunida har bir guruh o‘z loyihasini taqdim etadi. HTML kodi qanday yozilgani, sahifa dizayni, matnlarning joylashuvi, havolalar ishlashi, umuman sahifaning ko‘rinishi va funksionalligi sinf oldida namoyish qilinadi. Baholash jarayonida nafaqat yakuniy natija, balki guruhning hamkorlikda ishlashi, ijodkorlik darajasi va taqdimot qilishi ham inobatga olinadi. Bu metodning afzalliklari ko‘p. Birinchidan, talabada mas’uliyat hissi kuchayadi, chunki u bajargan ishini boshqalar oldida himoya qilishi kerak bo‘ladi. Ikkinchidan, jamoada ishlash ko‘nikmasi shakllanadi – har kim o‘z vazifasini bajarishi, hamkorlik qilishi o‘rganiladi. Uchinchidan, bu usul talabalarda ijodkorlik, dizayn tafakkuri va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Eng muhimi, ular nazariy bilimni emas, balki real hayotga yaqin bo‘lgan amaliy tajribani egallaydilar. Chunki HTML orqali yaratilgan sahifa – bu ko‘z bilan ko‘rinadigan, natijasi darhol baholanadigan haqiqiy mahsulotdir.



HTML mavzusini amaliy o'qitish bosqichlari: HTMLni o'qitishda samaradorlikka erishish uchun dars jarayonini uch asosiy bosqichga bo'lish maqsadga muvofiqdir: tashkiliy-motivatsion bosqich, nazariy-amaliy bosqich va yakuniy taqdimot va baholash bosqichi. Bu jarayon davomida "Loyiha asosida o'qitish metodi" qo'llanadi, chunki HTMLni chuqur o'zlashtirish faqat nazariy bilim bilan emas, balki amaliy faoliyat orqali amalga oshadi. Dars boshida o'qituvchi mavzu, maqsad va kutilayotgan natijalarni tushuntiradi. HTMLning kundalik hayotdagi o'rni, Google, YouTube, Wikipedia, mahalliy axborot saytlarida qanday asosiy texnologiya sifatida ishlashi misollar orqali ko'rsatiladi. O'quvchilarda "Men ham shu kabi web-sahifa yaratishim mumkin" degan ishonch va qiziqish uyg'otish uchun real web-sayt namunalari, qisqa video lavhalar yoki savol-javob usullaridan foydalaniladi. Keyingi bosqichda nazariya va amaliyot birgalikda olib boriladi. O'qituvchi HTML tilining mohiyatini, brauzerlar bu tilni qanday o'qishi va `<html>`, `<head>`, `<body>` kabi asosiy tuzilmani izohlaydi. Shuningdek, teglar, atributlar, yopiluvchi va yopilmaydigan teglar haqida tushuncha beriladi. Nazariy qismdan so'ng o'quvchilarga o'zlarining birinchi web-sahifasini yozib ko'rish vazifasi beriladi. Masalan, ular quyidagi kabi oddiy HTML hujjatini yaratadilar:



```
1  <!DOCTYPE html>
2  <html>
3  <head>
4      <meta charset="UTF-8">
5      <title>Birinchii sahifam</title>
6  </head>
7  <body>
8      <h1>Salom, HTML!</h1>
9      <p>Bu mening birinchi web sahifam.</p>
10 </body>
11 </html>
12
13
```

Natijada o'quvchi yozgan kodini brauzerda ochib ko'radi va HTML qanday ishlashini o'z ko'zi bilan kuzatadi. Bu ularni yanada ishonchli, faol va mustaqil bo'lishga undaydi. Nazariy bilim mustahkamlangach, o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linadi va "Shaxsiy portfolio", "Maktab sahifasi", "Do'kon reklama sahifasi" kabi mini-loyihalar ustida ishlashadi. O'qituvchi yo'l-yo'riq ko'rsatadi, lekin ijodkorlik, dizayn va kod yozish jarayonini o'quvchilarning o'ziga topshiradi. Har bir guruh HTML kod yozadi, rasm va matn joylaydi, havolalar yaratadi va sahifani brauzerda sinovdan o'tkazadi. Bu jarayon o'quvchilarda mas'uliyat, jamoada ishlash va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Yakuniy bosqichda har bir guruh o'z loyihasini taqdim etadi. Taqdimot jarayonida web-sahifaning dizayni, strukturasi, kod sifati, havolalar ishlashi, matn va rasm joylashuvi tahlil qilinadi

Mezoni

Maksimal ball

Kod tozaligi va strukturasi

10 ball

Dizayn va chiroyli ko'rinish

10 ball



Mezoni

Maksimal ball

Sahifa ishlashi, havolalar

10 ball

Taqdimot va nutq madaniyati

5 ball

Xulosa: HTML texnologiyasini o'qitish metodikasini ilmiy jihatdan tahlil qilganimizda shuni ko'rish mumkinki, bu mavzuni samarali o'zlashtirish faqat nazariy ma'lumotlarni tinglash orqali emas, balki o'quvchining o'z qo'li bilan web-sahifa yaratishi, unda ijodiy yondashuvni qo'llashi va natijani darhol ko'rishi orqali amalga oshadi. Shu sababli HTML darslarini tashkil etishda "Loyiha asosida o'qitish" (Project-Based Learning) metodi eng maqsadga muvofiq pedagogik yondashuv sifatida e'tirof etiladi. HTMLni o'qitishda muvaffaqiyatga erishish, avvalo, o'quvchida motivatsiyani shakllantirishdan boshlanadi. Agar o'quvchi HTMLni nima uchun o'rganishi kerakligini anglamasa, kod yozishga bo'lgan qiziqishi pasayadi. Shu bois darsning kirish qismida real web-saytlar, hayotiy misollar va interfaol taqdimotlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariya va amaliyotni birgalikda berish ham mazkur fan o'qitishining asosiy tamoyillaridan biridir. HTML teglari tushuntirilganidan so'ng, darhol brauzerda ularning natijasi ko'rsatilsa, o'quvchi ongida "kod – natija" bog'liqligi shakllanadi va bu bilim yanada mustahkam o'rnashadi. Loyiha asosida o'qitish metodini qo'llash HTML darslarining samaradorligini keskin oshiradi. Chunki o'quvchilar kichik guruhlar shaklida mustaqil ravishda sahifalar yaratadilar, kod yozadilar, dizayn tanlaydilar va yakunda taqdimot orqali o'z ishlarini himoya qiladilar. Bu jarayon ijodkorlikni rivojlantiradi, jamoada ishlash ko'nikmalarini hosil qiladi, mas'uliyat hissini kuchaytiradi va mustaqil ta'lim elementlarini shakllantiradi. Baholash jarayoni ham faqat test yoki og'zaki savol-javob bilan cheklanib qolmasligi kerak. HTML fanini baholashda loyiha taqdimoti, kod sifati, dizayn yechimi, fikrni ravon ifodalash, o'zaro baholash (hamkasblik baholashi) kabi mezonlar qo'llanilsa, o'quvchining real bilim va ko'nikmalari yanada aniq baholanadi. Bu esa baholash jarayonining adolatli va shaffof bo'lishini ta'minlaydi. Xulosa qilib aytganda, HTML – bu IT sohasiga kirish uchun birinchi bosqich va eshik vazifasini bajaradigan fan hisoblanadi. HTMLni chuqur o'zlashtirgan o'quvchi keyinchalik CSS, JavaScript, Frontend, Backend va boshqa web dasturlash yo'nalishlarini o'rganishga tayyor bo'ladi. Shu sababli HTML darslarini zamonaviy metodlar asosida tashkil etish, loyihaviy yondashuvni qo'llash va amaliy mashg'ulotlarni ustuvor qilish bugungi ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir.





Adabiyotlar:

1. Sharipov, M., & Karimova, S. (2024). Informatika darslarida zamonaviy dasturlarni qo'llash usullari. Ta'lim va Fan, 2(4), 45-48.
2. Olimova, N. (2023). Dasturlash asoslari va amaliy mashg'ulotlar. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
3. Tursunov, A., & Rahmonov, I. (2022). Interaktiv darslarni tashkil etishda axborot texnologiyalari. Innovatsion Pedagogika, 1(3), 29-33.
4. Xudoyberdiyev, O. (2021). O'quvchilarning texnik ko'nikmalarini rivojlantirishda dasturlarni qo'llash. Ta'lim-Tarbiya, 4(2), 12-15.
5. Mamatqulov, D. (2020). Matematika va informatika fanlarini integratsiyalash. O'qituvchi nashriyoti, Toshkent.

